

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar- fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **766 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarninigi ulushi **0,6 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **769 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-fevral oyida viloyatda 904 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 124 taga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,5 % ga oshgan hamda ularning soni 135 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 766 (3,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 26,3 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Farg'ona (18,7 %), Qo'qon (13,9%), Marg'ilon (10,0%) shaharlarida, Uchko'prik (5,0 %) va Dang'ara (4,8 %) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 mart holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Farg'ona viloyati	26769	100,0	26337	100
Far'gona sh.	5026	18,8	4932	18,7
Qo'qon sh.	3723	13,9	3670	13,9
Quvasoy sh.	740	2,8	727	2,8
Marg'ilon sh.	2637	9,9	2620	10,0
tumanlar				0,0
Oltiariq	1128	4,2	1120	4,3
Qo'shtepa	885	3,3	877	3,3
Bog'dod	930	3,5	927	3,5
Buvayda	1173	4,4	1150	4,4
Beshariq	810	3,0	797	3,0
Quva	1093	4,1	1068	4,1
Uchko'prik	1364	5,1	1305	5,0
Rishton	809	3,0	795	3,0
So'x	656	2,4	656	2,5
Toshloq	1161	4,3	1144	4,3
O'zbekiston	1186	4,4	1161	4,4
Farg'ona	940	3,5	908	3,4
Dang'ara	1282	4,8	1258	4,8
Furqat	615	2,3	613	2,3
Yozyovon	611	2,3	609	2,3

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 98,4 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 1,6 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 f.p. ga kamayganligini ko'rsatmoqda.


faoliyat ko'rsatayotganlar faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,3 % savdoda, 21,2 % sanoatda, 8,0 % qurilishda, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,1 % tashish va saqlash, 3,9 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda**




2018 yil yanvar-fevral holatiga 904 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 15,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (149 ta), Qo'qon (106 ta), Marg'ilon (78 ta) shaharlarida, Oltiariq (71 ta), Uchko'prik (54 ta) va Buvayda (53 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (19 ta) hamda Qo'shtepa (17 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (230 ta), savdoda (157 ta), qishloq, qurilishda (83 ta) va o'rmon va baliq xo'jaligida (50 ta) va yashash va ovqatlanish xizmatlarida (46 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (22 ta), tashish va saqlashda (32 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (33 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi axborot va aloqada (-2,3 f.p.dan), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,1 f.p) kamayganligi, buning natijasida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,1 f.p.), savdoda (+0,1 f.p), tashish va saqlashda (+0,2 f.p.), qurulishda (+0,2 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,3 f.p.dan), sanoatda (+1,3 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (+1,3 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.03.2018 y.	01.03.2017 y.	farqi (+-)
Axborot va aloqa	3,9	6,2	-2,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,4	3,5	-1,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5,5	5,4	0,1
Savdo	21,3	21,2	0,1
Tashish va saqlash	4,1	3,9	0,2
Qurilish	8,0	7,8	0,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,4	4,1	0,3
Sanoat	21,2	19,9	1,3
Boshqa turlari	29,3	28	1,3

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 mart holatiga 21036 tadan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 8039 ta, oilaviy korxonalar – 2277 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10042 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 49 tani va boshqalar 629 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 210 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 48 taga yoki 29,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 152 tasi qo'shma korxonalar, 58 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 80 ta (37,7 %), Qo'qon 33 ta (15,6 %), Marg'ilon 17 ta (8,0) shaharlarida, Farg'ona tumanida 12 ta (5,7 %) va Quvasoy shahar 12 ta (5,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,9 %), Furqat tumani 2 ta (0,9 %), Qo'shtepa tumani 3 ta (1,4 %), Bag'dod tumani 3 ta (1,4 %), Buvayda tumani 3 ta (1,4 %) va Yozyovon tumani 3 ta (1,4 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 mart holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 149 ta (71,0 %), savdoda 19 ta (9,0 %), boshqa turlarida esa 11 ta (5,2 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (1,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 4 ta (1,9 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (2,4 %), qurilishda 5 ta (2,4 %), tashish va saqlashda 6 ta (2,9 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 8 ta (3,8 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-fevral oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 10 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga ko'paygan yoki 25 foizga oshgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 7 ta, savdoda 2 ta va qurilishda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 mart holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 20,9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 mart holatiga qaraganda 13,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4026 tasi (19,3 %) Farg'ona, 3144 tasi (15,1 %) Qo'qon, 2290 tasi (11,0 %) Marg'ilon shaharlariga, 1069 tasi (5,1 %) Uchko'prik va 1056 tasi (5,1 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20,9 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 5579 tasi (27,1 26,7 %) – savdoda, 5520 tasi (26,4 %) - sanoatda, 2091 tasi (10,0 %) - qurilishda, 1397 tasi (6,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1146 tasi (5,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1059 tasi (5,1 %) - tashish va saqlashda, 1036 tasi (5,0 %) - axborot va aloqa sohasida, 446 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2601 tasi (12,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-fevral holatiga 774 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,7 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona (135 ta), Qo'qon (88 ta), Marg'ilon (65 ta) shaharlarida, Oltiariq (59 ta) va Buvayda (51 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (10 ta), Beshariq (15 ta) hamda Qo'shtepa (15 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (230 ta), savdoda (157 ta), boshqa turdagi xizmatlar (122 ta), qurilishda (82 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (50 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (46 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (22 ta), tashish va saqlashda (32 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (33 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 mart holatiga 2308 tani tashkil etib, ulardan 2277 tasi yoki 98,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 27,7 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 49,6 % yoki 1129 tasi sanoat, 13,3 % yoki 302 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12,7 % yoki 290 tasi savdo, 10,1 % yoki 229 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,1 % yoki 47 tasi tashish va saqlash, 1,4 % yoki 31 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 25 tasi qurilish, 0,7 % yoki 16 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,0 % yoki 208 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: I.Nishonova

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

(0371) 230-87-36,37